



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12(50)2022

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

Научно-реферативный,

духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (50)

2022

декабрь



Received: 20.11.2022
Accepted: 29.11.2022
Published: 20.12.2022

UDK 616-005.1-081.2

BURUN TO'SIG'IDAGI JARROXLIK AMALIYOTLARIDA GEMOSTATIK VOSITALARINI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.

Esamuratov A.I., Avezov M.I., Raximov A.A., Rustamov J.U., Jumaniyazov B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

✓ *Rezyume*

Hozirgi kunda otorinolaringologiya sohasida burun bo'shliqlarida turli xil jarrohlik amaliyotlari o'tkazilib keladi. Burun bo'shlig'larining zamonaviy jarrohlik amaliyotlaridan septoplastika, rinoplastika, rinoseptoplastika, FESS (Functional endoscopic sinusites sergury) Respublikamizning otorinolaringologlari tomonidan barcha hududlarida keng o'tkazilib kelinmoqda. Turli xil zamonaviy jarrohlik amaliyotlariga qaramasdan kasalliklar qaytalanishi, qon ketishlar, tuzalish bosqichining uzayishi va asoratlanish holatlari nisbatan ko'p uchramoqda. Adabiyotlarda mualliflar tomonidan burun to'sig'ining zamonaviy jarrohlik amaliyotlaridan eng ko'p uchraydigan holatlaridan biri burundan qon ketishidir.

Kalit so'zlar: septoplastika, burundan qon ketish, gemostatik tampon, jarrohlik amaliyoti.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ КРОВООСТАНАВЛИВАЮЩИХ СРЕДСТВ ПРИ ХИРУРГИЧЕСКИХ ПРОЦЕДУРАХ НОСОВОЙ ПЕРЕГОРОДКИ

Эсамуратов А.И., Аvezов М.И., Рахимов А.А., Рустамов Ю.Ю., Джуманиязов Б.

Ургенчский филиал Ташкентского медицинского академии

✓ *Резюме*

В настоящее время в области отоларингологии проводятся различные хирургические процедуры в носовых полостях. Из современных хирургических процедур носовых полостей: септопластика, ринопластика, риносептопластика, FESS (Functional endoscopic sinusites sergury) широко проводятся оториноларингологами во всех регионах нашей Республики. Несмотря на различные современные хирургические процедуры, рецидивы заболеваний, кровоизлияния, удлинение фазы заживления и осложнения встречаются относительно часто. Одним из наиболее частых случаев современной хирургии носовой перегородки, описанных авторами в литературе, является кровотечение из носа.

Ключевые слова: септопластика, носовые кровотечения, кровоостанавливающий тампон, хирургическая процедура.

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF HEMOSTATIC AGENTS IN SURGICAL PROCEDURES OF THE NASAL SEPTUM

Esamuratov A.I., Avezov M.I., Raximov A.A., Rustamov J.U., Jumaniyazov B.

Urganch branch of Tashkent Medical Academy

✓ *Resume*

Currently, various surgical procedures are performed in the nasal cavities in the field of otolaryngology. Of the modern surgical procedures of the nasal cavities: septoplasty, rhinoplasty, rinoseptoplasty, FESS (Functional endoscopic sinusites sergury) are widely performed by otorhinolaryngologists in all regions of our Republic. Despite various modern surgical procedures, relapses of diseases, hemorrhages, prolongation of the healing phase and complications are relatively common. One of the most frequent cases of modern nasal septum surgery described by the authors in the scientific literature is nosebleed.

Keywords: septoplasty, nosebleeds, hemostatic tampon, surgical procedure.



Dolzarliligi

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra so'nggi o'n yillikda ham birlamchi bo'g'in muassasalariga murojaatlar, ham statsionar sharoitda davolangan bemorlar guruhlarini tahlil qilish asosida burun to'sig'i qiyshayishi, burundan qon ketish va burun yondosh bo'shliqlari kasalliklari lor-a'zolarining umumiy kasallanish tuzilmasida mustahkam birinchi o'rinni egalladi. Mualliflarning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra endonazal-endoskopik jarrohlik usullarini tatbiq etilishi bilan burun bo'shlig'ida amalga oshiriladigan operativ amaliyotlar sonisezilarli oshdi.

Hozirgi vaqtda burun bo'shlig'ini endoskopik tekshirish ma'lumotlari, burun va burun yondosh bo'shliqlari KT, o'tkazilgan funksional tekshiruvlar tahlili asosida patologik jarayonni bartaraf etish, burun va bo'shliqlarning shilliq qavati, anatomik suyak tuzilmalarini maksimal ravishda saqlab qolish, ularning konfiguratsiyasini to'g'irlash, yo'qolgan funksiyalarni tiklashga yo'naltirilgan davolash rejasi belgilanmoqda. Keyingi yillarda o'tkazilgan ishlarda funksional endonazal ehtiyotlovchi operatsiyalar bo'yicha katta ma'lumotlar to'plangan. Garchan burundan nafasolishning buzilishi va burunbo'shlig'i, burun yondosh bo'shliqlari va atrofdagi to'qimalarda patologik jarayonning rivojlanishiga olib keluvchi boshqa funksional o'zgarishlar bir necha sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lsada, jarrohlik amaliyoti vaqtida yo'qolgan funksiyalarni tiklash va patologik jarayonni tugatish maqsadida burun bo'shlig'i tuzilmalarida bir vaqtning o'zida operativ amaliyotlar kompleksini amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Zamonaviy konservativ terapiya yutuqlariga qaramay, burun bo'shlig'i, burun yondosh bo'shliqlari hamda atrofdagi a'zo va to'qimalarda amalga oshirilayotgan qo'shma operativ amaliyotlar soni kamayayotgani yo'q. Hozirgi tibbiyot yutuqlari qo'shma xirurgik amaliyotlar ko'lamini kengaytirish imkonini beradi. Adabiyotlarda burun to'sig'i, burun bo'shlig'ining lateral devori tuzilmalari deformatsiyalari, burun yondosh bo'shliqlari tabiiy teshigi sohasidagi patologik jarayonlar; perforativ odontogen yuqori jag'sinusitlari; orbitaning shikastlanishi bilan qo'shiluvchi burun yondosh bo'shliqlarining barmoqsimon cho'zilishlarida qo'shma operatsiyalarning tipik variantlarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha yoritilmagan. Garchan qo'shma operativ amaliyotlarda u yoki bu darajada burun bo'shlig'ining turli sohalorida shilliq pardaning shikastlanishlari yuzaga kelar ekan, operatsiyadan keyingi travmatik qon ketishini oldini olish va davolash muammosi o'tamuhim ahamiyat kasb etadi. Shoshilinch LOR-yordamga muxtojlar orasida burundan qon ketishi bilan bemorlar soni 15,1-0,6%ni tashkiletadi. Epistaksis, sezilarli darajada qon yo'qotilishiga olib kelib, bemor hayotiga xavf solishi mumkin. Quyidagilar burundan qon ketishining sabablari hisoblanadi: travmalar, burun tuzilmalaridagi jarrohlik amaliyotlari, burun bo'shlig'i shilliq pardasi atrofiyasi, arterialgipertenziya, qon kasalliklari, shuning uchun sifatli gemostaz – bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy maqsadi: Burun to'sig'idagi jarroxlik amaliyotlarini arxiv ma'lumotlari asosida o'rganish va amaliyotda qo'llanilgan gemostatik vositalarini samaradorligini baholash.

Tadqiqotning usul va materiallari

Tadqiqotga Xorazm viloyati KTTM LOR bo'limida 2020-2022 yillar mobaynida statsionar yotib davolangan bemorlar arxiv ma'lumotlari asosida o'rganildi. Shuningdek, davolanish jarayoniga 100 nafar bemor jalb qilindi va shartli ravishda 2 ta guruhga ajratildi. Asosiy va nazorat guruhiga bemorlar teng 50 nafardan taqsimlandi. Barcha bemorlar umumiy otorinologik, klinik-laborator, endoskopik, rentgenologik, instrumental tekshirishdan o'tkazildi va olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berildi. Umumiy jalb qilingan bemorlarning 35 nafari ayol va 65 erkak kishi bo'lib, shulardan 18-25 yoshgacha bo'lgan bemorlar 52%, 25-40 yoshgacha 40%, 40 yoshdan katta bo'lgan bemorlar 8% tashkil qildi

Natija va tahlillar

Otorinologiya bo'limiga 2020-2022 yillar mobaynida umumiy 5750 bemor murojat qilgan bo'lib, shundan 3520(61.2.%) bemor bo'limda statsionar tarzda davolangan bo'lsa, qolgan 2230 (38.8%) nafar bemorga ambulator yordam ko'rsatilgan. Murojaatlar yillarga ko'ra taqsimlanishi o'rganilganda keyingi yillarda soni oshib boryotganiini kuzatiladi. Statsionar tarzda davolangan bemorlarning murojaatlarning 59% erkaklar, 41% ayollar tashkil qilgan. Bemorlarning 23% shahar aholisi 79% qishloq aholisiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Murojaatlarning tumanlar kesimida o'rganib

ko'rilganda eng yuqori ko'rsatkich Urganch tumaniga 12.3% va eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida 4.9 % tashkil qildi.

Statsionar yotib davolangan umumiy bemorlarning 31% yashash joylaridan yo'llanma bilan, qolgan 69% nafari o'z murojaatiga ko'ra yotqizilgan.

Bundan tashqari kasalliklarning nozoliklik jixatdan guruxlarga taqsimlab o'rganilganda eng yuqori ko'rsatkich burun va burun yondosh bo'shlig'i kasalliklari 51% uchrashi aniqlandi. Quloq kasalliklari 24% uchrashi bilan ikkinchi o'rinda va uchinchi va to'rtinchi o'rinlarda mos ravishda xalqum va xiqildoq kasalliklari egallagan. Burun va burun yondosh bo'shlig'i kasalliklari orasida surunkali yiringli rinosinitlar, quloq kasalliklaridan surunkali yiringli o'rta otitlar ko'p uchrgan bo'lsa xalqum va xiqildoq kasalliklari orasida surunkali tonzillitlar ko'p uchrgani aniqlandi. Umumiy statsionar sharoitda davolangan bemorlarning asosiy qismini 2077(59%) nafarini yuqori nafas yo'llari kasalliklari va 1162(33%) nafar eshitish a'zosi kasalliklari egalladi.

Burun va burun yondosh bo'shliqlarining o'tkir va surunkali kasalliklari orasida burun to'sig'i qiysliqligi etakchi o'rinni egalladi va barcha bemorlarda jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi.

Burun to'sig'ida jarrohlik usullari barcha bemorlardi endoskopik va ana'naviy usulda olib borildi. Asosiy guruxga jalb qilinga 50 nafar bemorda esa jarroxlik amali xamda nazorat gurug'idagi bemorlarda farqli ravishda amaliyot yakunida gemostatik tamponlar qo'yildi. Asosiy guruhdagi bemorlar jarroxlik amaliyotidan keying davrida yuz sohasida diskomfort bo'lmasligini, yuz sohasida shishlar kamligini va tamponlar olinganda og'riq hissi bo'lmasligi aniqlandi. SHuningdek asosiy guruhdagi bemorlarning tuzalish davri nazorat guruhdagilarga qaraganda 2 kunga qisqarishi kuzatildi va bu orqali bemorlar moddiy xarajatlari kamayishiga erishildi. Burun to'sig'i jarroxlik amaliyoti o'tkazgan bemorlarning operatsiyadan keyingi 5-10 kunlaridagi burun shilliq qavatining tiklanish xolati ko'zdan kechirilganda 49 nafar bemorda 5-kunning o'zidayoq burun shilliq qavatining xolati normal xolatga qaytgan kuzatildi. Qolgan 1 nafar bemorda operatsiyadan keyingi davrda burun shilliq qavatining xolati 8 kunga cho'zildi. Nazorat guruxidagi burun to'sig'i jarroxlik amaliyoti o'tkazgan bemorlarning operatsiyadan keyingi 5-10 kunlaridagi burun shilliq qavatining tiklanish xolati ko'zdan kechirilganda tampon olingandan so'ng 12 nafar bemorda qon ketish, 18 nafar bemorda old tamponlar 3-kunida olingai sababli bemorda holsizlik va kuchli og'riq kuzatildi. Ushbu guruhdagi qolgan bemorlarda qayta tiklanish davri odatdagidek kuzatildi.

Burun bo'shlig'ining shilliq pardasi holati vizual baholanganda qon to'xtagandan so'ng bir hafta o'tgach, ayrim holatlarda burun shilliq pardasining shishi, shuningdek u eki bu darajada trofik buzilishlarning rivojlanishi qayd etildi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra eng ko'p kasalliklar guruxi sifatida burun va burun yondosh bo'shlig'i kasalliklari 51% uchrashi aniqlangan bo'lsa keying o'rinlarda quloq kasalliklari 24% mos ravishda xalqum va xiqildoq kasalliklari egallagani aniqlandi.

SHuningdek, asosiy guruhdagi bemorlarning tuzalish davri nazorat guruhdagilarga qaraganda 2 kunga kamayishi natijasida bemorlarning yotoq kunlari kisqrishi oqibatida moddiy xarajatlari kamayishiga erishildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avdeeva S.N. Rasprostranennost zabolevaniy LOR-organov sredi gorodskogo naseleniya na sovremennom etape // Ros. otorinolaringologiya. – M., 2006. – № 3. – S. 33–37.
2. Avdeeva S.N. Sovershenstvovanie poliklinicheskoy otorinolaringologicheskoy pomoshchi v usloviyax sovremennogo megapolisa (kliniko-epidemiologicheskoe issledovanie): Diss. ... kand. med. nauk. – M., 2008. – S. 126-128.
3. Gryazina N.V. Optimizatsiya organizatsii ekstrennoy otorinolaringologicheskoy pomoshchi v mnogoprofilnom statsionare vzrosloму naseleniyu v usloviyax krupnogo promishlennogo goroda: Diss. ... kand. med. nauk – SPb., 2007.
4. Berzon D.B. Ear disease in a group general practice. A review of world communities // Laryng. Otol. –1983. – № 97, – P. 817–824.

Qabul qilingan sana 20.11.2022

